

TA'LIM TEKNOLOGIYALARI

Pishaddinova Shaxnoza Baxitbay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lif fakulteti Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 1- "A" guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagog kadrlarning ta'lif jarayonini qanday olib borish kerakligi,bolalarga bilimni qanday qilib to'g'ri yo'naltirish hamda ta'lif jarayonida o'quvchilarni darsga qanday qiziqtirish kerakligi,ta'lif-tarbiya, tarbiya texnologiyalari haqida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: Ta'lif, tarbiya, maktab, o'qituvchi, o'quvchi, qadriyat, motivatsiya, texnologiya, ta'lif texnologiyalari, ta'lif tamoyillari, ta'lif maqsad va vazifalari, kreativlik, rag'batlantirish.


„Barchamizga ayonki,inson qalbiga yo'l avvalo ta'lif-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqida gap ketsa,ajdodlarimiz qoldirgan bebafo merosini eslash bilan birga,ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot-o'qituvchi murabbiylarning olıjanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.

Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashda mas'uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini yaxshi tasavvur qilamiz.“ - deya o'z fikrlarini bildirgan O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Darhaqiqat bugungi kun talabi ham o'quvchilarni ham zamonaviy ham milliy ruhda tarbiyalash,ularga to'g'ri yo'nalish ko'rsata bilish,ularning qiziqishlarini inobatga olgan holda qo'llab-quvvatlash ,ularni rag'batlantirib borish va motivatiya bera oladigan haqiyqiy fidoyi pedagog davr talabi.

Motivatsiya inson xulq-atvori,uning bog'lanishini,yo'nalishi va faolligini tushintirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi.

Bu haqida O'zbekiston Respublikasining „Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ va ta'lifni isloh qilish borasidagi boshqa me'yoriy hujjatlarida ta'lif tizimini tubdan isloh qilish va asosida intellektual salohiyatli ma'naviy barkamol avlodni shakllantirish davlat ahamiyatiga molik muhim masalalardan ekanligi ta'kidlangan.

Bizga yaxshi ma'lumki, tarbiya jarayoni uzoq muddatli, murakkab, uzlusiz bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Garchi zamonaviy ta'lif texnologiyasi o'quvchining ta'lif jarayonidagi yetakchilik rolini yoqlayotgan bo'lsa-da, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi asosiy mavqyeini egallay olmaydi. Chunki unda xarakter, dunyoqarash yetarlicha shakllanmagan bo'lib, u bu borada tarbiyachining yordamiga



ehtiyoj sezadi. Shu bois tarbiya texnologiyasi mantiqiy hamda tarkibiy jihatdan ta'lim texnologiyasidan farq qiladi. Tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyaviy jarayon yotadi. O'quvchilar faoliyatni tashkil etuvchilar bo'lib, ular tomonidan erishiladigan natijalarni rejalashtirish va unga erishish usullari, bu usullarni modellashtirish, ishlab chiqarilgan reja va modellarni ro'yobga chiqarish, bu rejalarini amalga oshiruvchi shaxsning faoliyati va axloqini boshqarish kabilar hisoblanadi.

Tarbiya — tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar — bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar, tarbiyalanuvchilar — bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko'rsatmasalar tajriba va bilim o'rgana olmaydilar.


Tarbiya jarayoni:

- maqsadga yo'nalganlik;
- ko'p omillik;
- jo'shqinlik;
- davomiylik;
- uzlusizlik;
- komplekslilik;
- variantlilik;
- ikki tomonli xarakter;
- natijalarning olisligi.

Tarbiya vazifalari:

1. O'z vatanining fuqarosini tarbiyalash. Tarbiyaning bu vazifalarini amalga oshirish quyidagilarni taqozo etadi:
 - milliy vatanparvarlik, o'z vataniga, tarixiga, madaniyatiga iftixor tuyg'usi;
 - millatlararo madaniy munosabatlар, siyosiy madaniyat.
2. Shaxsning ma'naviyatini shakllantirish. Ma'naviyat — kishining ichki dunyosi bo'lib, uning jamiyat va tabiatdagi «Men»i, obrazi, taqdiri va rolini ifoda etadi. Ma'naviyat darajasi — bu, ma'lum ma'noda, insoniylik mezonidir. Ma'naviyatni shakllantirish — bu uning shaxsiy harakatlari, intilishlari, refleksiyasi bilan kishining ichki dunyosini vujudga keltirishdir.

Individuallik tabiat tuhfasi bo'lib, uni rivojlantirish zarur. Modomiki, inson jamiyatda yashar ekan, u jamiyatdagi axloq va huquq mezonlarini, ijtimoiy fikrlarni hurmat qilishi lozim. Mehnatning aksariyat ko'rinishlari uchun jamoa harakati zarur bo'ladi. Shu tufayli jamoaviylik ruhidha tarbiyalash dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Ayni chog'da individual tarbiya nihoyatda muhimdir, chunki bunga dastlab yetarlicha



e'tibor berilmagan edi, hozir esa buni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar talab etmoqda.

Har bir o'qituvchi o'quvchilarning yaxshi o'qishlarini,darslarga ishtiyoq bilan yondashishlarini istaydi.O'quvchi darsga qiziqmas,o'qituvchining shijoatini so'ndiradi.Bu,albatta, pedagogik jarayonida bir qator muammolarni vujudga keltiradi.Zero, Ehtiyojmand aytganidek ,“Agarda o'quvchida o'qishga qiziqishning bo'lmasa,barcha izlanishlarimiz-u o'ylagan niyatimiz puchga chiqadi“.

O'quvchi darsga befarq bo'lib qiziqmas va ehtiyoj sezmasa,samarali o'qitishga erishish mushkul.Shu sababli o'qituvchi oldida o'quv jarayoniga qiziqtirish vazifasi turadi.

„Har bir darsda maksimal samaraga erishish uchun 4 qadam“, - ushbu yo'nalishni quyida ko'rib chiqamiz:

1-qadam.Aniqlashtiring. Siz O'quvchilarimiz 45daqiqada aynan nimani o'rgatish kerakligini bilib oling.Ya'ni birinchi navbatda dars o'tishdan asosiy maqsadingizni yozib qo'ying.

2-qadam.Vaqtni taqsimlangan.Sizda 45daqiqqa mavjud.Darsning boshlanish qismini qanday olib borasizlar,yoki darsning asosiy qismiga qancha vaqt sarflaysiz?


Barcha -barchasini rejorashtiring.

3-qadam.Kerakli resurslarni tanlang.Bugungi darsga aynan qanday materiallar kerak va siz bu darsni qanday metodlar orqali o'tkazmoqchi? Mana shu savollarga javob yozib qo'ying.

4-qadam.Reja tuzing va har kuni shu tartibda ishlashga odatlaning.Yon safaringizda doimo dars uchun maxsus reja bo'liahi kerak.Bu sizni har tomonlama bo'lishingizga va narsalaringizdan maksimal darajada samaraga erishingizga yordam beradi.

Bolalarni darslarga qiziqtirishda boshlang'ich sinfdayoq jiddiy muammolarga duch kelinadi.Chunki bolalar ko'p chalg'ishadi,shovqin-suron qilishadi,o'qituvchini tinglashmaydi,sinfdag'i mashg'ulotlar va uy vazifalarini bajarishga qunt qilishmaydi.O'quvchi ulg'aygan sari ba'zan ularning fe'l-atvorida o'qishga qiziqmaslik bilan bog'liq sabablar ham ko'payib boradi.O'quv faoliyatini jonlantirishga intilishning an'anaviy usuli,bu -yomon baholar bilan “siylash“ hisoblanadigan bu ham har doim ijobiy samara bermaydi.

Bolada o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish uzoq muddat davom etadi,aniq maqsadga yo'naltirilgan va o'ta mashaqqatli mehnat talab qiladi.Boshlang'ich ta'kimda bolalarni o'quv faoliyatiga qiziqtirish,,dars-sayohat",dara-o'yin, „yozuvchilar bilan uchrashuv “ „syujetli dara“, „dars musobaqa“, „dars-tadqiqot“, „ijodiy ishlar himoyasi“ kabi dars turlarini tashkil etish amalga oshiriladi.Darsning turli



bosqichlarda qiziqtirishning har xil usul va yo'llarini qo'llash o'quvchilarning o'qishga bo'lgan intilishini mustahkamlaydi.

Xulosa o'rnila shuni aytishim mumkinki, o'quvchilarda bilim olishga befarqlikni qanday yengish mumkin? „Istamayman" reaksiyasi mag'lub etish uchun nimalar qilish kerak? Bu savollarga o'quvchi motivatsiyaning kuchaytirish orqali yechim topish mumkin.

Mazkur o'rinda ko'p narsa pedagogning mahorati,uning o'quv-tarbiya ishini tashkil eta olish qobiliyati,ijodi va doimiy izlanishiga bog'liq.Qaysidir ma'noda standart darsdan yiroqlashib,o'quvchilar e'tiborini tortish, ular faoliyatini jonlantirish,ularni fikrlash,izlanish va harakat qilishga undash uchun yangi dara o'tish jarayonlari kerak bo'ladi. Bundan tashqari dars jarayonlarida o'quvchilarning faqatgina tarbiya yoki bo'lmasa ta'ilmiga e'tibor berib qo'ymasdan ularning ikkalasini ham baravariga olib olish, zarur. Zero, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, - "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi,bu sharqona qarash,sharqona hayot falsadasidir", - deya bejiz aytmaganlar.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Yuksak ma'naviyat-Yengilmas kuch"-I.A.Karimov.Toshkent "Ma'naviyat"- 2008.
2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi-R.A.Mavlonova, N.X.Rahmonqulova, B.A.Normuradova, K.O.Matnazarova.Toshkent-2014
3. „Sog'lom avlod uchun“ jurnali .2014- yil/fevral 2-son,12-bet.
4. Tarbiya teoriyasi -Pazilov Arzi,Seytmuratov Qalbay,Qurbaniyazova Zamira,Nokis- "Bilim" 2019
5. Xasanova J va boshqalar. Pedagogika.O'quv qo'llanma-T.2006
6. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch"- I.A.Karimov ,T.2008
7. "Turkiy guliston yohud axloq" -Abdulla Avloniy,T.2018. "Yoshlar" nashriyot uyi.
8. Arxiv.uz rasmiy sayti.